**Xolmirzayev Baxtiyor Nurmirza o‘g‘li**
Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi

# SINFDAN TASHQARI SPORT MASHG‘ULOTLARIDA O‘QUVCHILARNING MILLIY G‘URUR TUYG‘USINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

**DOI:** https://doi.org/10.5281/zenodo.15730436

**Annotatsiya.** Maqolada sinfdan tashqari sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirishning pedagogik-texnologik jihatlari o‘rganilgan. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya, sport va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni rivojlantirishga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlari asos qilib olingan. Sport mashg‘ulotlarida milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirishda interfaol pedagogik texnologiyalar – “Keys-stadi”, “Amaliy jamoaviy ijodiy loyiha”, “Inform-dayjest”, “Mavzuli blits-so‘rov”, “Breyn-ring” va “Axborot +” texnologiyalaridan foydalanilgan. Tadqiqot natijalari sinfdan tashqari sport mashg‘ulotlarida interfaol texnologiyalarning samaradorligini isbotladi va ularning o‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirishda amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi.

**Kalit so‘zlar:** sport mashg‘ulotlari, milliy g‘urur, interfaol texnologiyalar, pedagogik texnologiyalar, keys-stadi, sinfdan tashqari mashg‘ulotlar.

Kirish. Har bir jamiyat yetuk, har tomonlama kamol topgan, o‘zida butun ijobiy va oliyjanob fazilatlarni birlashtira oladigan avlodni tarbiyalashni orzu qiladi. Tarbiyali, ma’naviyatli yoshlargina bugungi kun va kelajak haqida teran fikr yuritadi[7], shuningdek, kelgusi hayot va turmushning ravnaqi uchun o‘z hissasini qo‘shishga intiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5924-son, 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6108-son, 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son, 2021-yil 5-noyabrdagi “Sport-ta’lim muassasalari faoliyatini 2025-yilgacha rivojlantirish dasturi to‘g‘risida” PQ-5280-son, 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» PF-60-son Farmonlari, 2019-yil 13-fevraldagi Vazirlar Mahkamasining “2019-2023-yillar davrida Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 118-son Qarori hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi [1; 2; 3; 4; 5; 6].

Tadqiqot metodologiyasi. Sinfdan tashqari sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirish jismoniy, moddiy va ma’naviy, axloqiy ma’no kasb etadi. Bunda milliy qadriyatlar, milliy urf-odatlar ma’naviy asos bo‘lib xizmat qiladi. Milliy g‘ururning jismoniy mazmuni, uning milliyligi va umuminsoniyligi, sportning hammabopligi, insonparvarligi, istiqbolliligi, irodaviy pishiqligi, hayotiy mushtarakligi bilan baholanadi.

Sinfdan tashqari sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirilishda asosiy e’tiborni ulardagi jismoniy madaniyatlarni rivojlantirishga qaratish lozim. Shuning uchun quyidagilar alohida hisobga olinadi:

jismoniy mashqdan kutilayotgan samara, ya’ni bu mashq bilan qanday vazifalar (bilim berish, tarbiyalash, yoki sog‘lomlashtirish)ni hal qilish;

jismoniy mashqning tuzilishi (statik yoki dinamik mashqlarmi, siklik, atsiklik harakatmi yoki boshqalar);

mumkin bo‘lgan takrorlash usuliyatlari (bo‘laklarga ajratib yoki mashqni to‘la bajarish bilan o‘rgatish maqsadga muvofiqmi, takrorlashlar oralig‘ida aktiv dam olishni qo‘llash kerakmi yoki passiv dam olishni ta’minlay oladimi va hokazolar) .

Sinfdan tashqari sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirishga jasorat, mardlik, qahramonlik, dovyuraklilik, vatanparvarlik va g‘oyalari ifodalanadi. Shu bois ular ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishda kuchli, samarali tarbiyaviy ta’sirga ega vositalar sanaladi.

Sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirishda guruh yoki jamoada ishlash; muammoni hal qilishda guruh yoki jamoa a’zolarining o‘zaro hamkorligiga tayanish; muammoning yechimi yuzasidan shaxsiy fikrni mustaqil, erkin ifodalash; bildirilgan fikrni tanqidiy qabul qilmaslik va uni inobatga olish (muhokama jarayoni fikrning qanchalik ahamiyatli ekanini oydinlashtiradi); muammoning yechimini topishda guruh yoki jamoa a’zolarining birdek faollik ko‘rsatishiga erishish; guruh yoki jamoa faoliyatida o‘zaro yordamni qaror toptirish; muammoning yechimi yuzasidan ko‘plab fikrlarning to‘planishiga erishish; bildirilgan takliflar asosida optimal yechimning tanlanishi; yechimni taqdim etish interfaol ta’lim texnologiyalarining ustuvor tamoyillari sanaladi.

Sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirish maqsadida ma’naviy-ma’rifiy tadbirning mavzusi, xarakterli xususiyati, o‘rganilayotgan muammoning ijobiy yechimini kafolatlashda ahamiyatli ekanini inobatga olgan holda “Keys-stadi”, “Amaliy jamoaviy ijodiy loyiha”, “Inform-dayjest”, “Mavzuli blits-so‘rov”, “Breyn-ring”, “Axborot +” kabi texnologiyalar tanlandi.

**Keys-stadining tarkibiy tuzilmasi**

| ***Texnologiya sifatida qo‘llanilganda*** | ***Metod sifatida qo‘llanilganda*** |
|---|---|
| 1. Keys bayoni.<br>2. Keys topshirig‘i (topshiriqlari) yoki savoli (savollari).<br>3. Foydalanish uchun tavsiya qilingan adabiyotlar.<br>4. Texnologik ko‘rsatmalar.<br>5. Keysni yechish jarayoni.<br>6. Keys yechimini taqdimot asosida tahlil qilish.<br>7. Pedagog (keysolog)ning yechimi | 1. Keys bayoni.<br>2. Keys topshirig‘i (topshiriqlari) yoki savoli (savollari).<br>3. Tavsiya qilingan adabiyotlar.<br>4. Pedagogning yechimi |

Keys-stadi texnologiyasi. Ingliz tilidan tarjima qilinganda “case” – “hodisa”, “vaziyat” ma’nolarini anglatadi. Keys-stadi pedagogik jarayonda o‘qitish va tarbiya xarakteridagi “real vazifa, vaziyatlarni hal qilish” [8,1] orqali samaradorlikka erishishni ta’minlovchi muammoli-vaziyatli tahlil texnologiyasidir.

Ushbu texnologiyani ta’lim va tarbiya jarayonlarida qo‘llash orqali quyidagi malaka va amaliy ish tajribasining takomillashuvchiga erishiladi: “muammolarni aniqlash, tanlash va hal qilish; axborotlar bilan ishlash – bayon qilingan vaziyatlarda yoritilgan tafsilotlarning mohiyatini anglash; axborotlar va dalillarni tahlillash va sintezlash; taxmin hamda xulosalarni ilgari surish; muqobil g‘oyalarni baholash; qarorlar qabul qilish; boshqalarni tinglash va ularning fikrlarini tushunish” [8,2].

Pedagogik jarayonda o‘quv va tarbiyaviy xarakterga ega keyslardan foydalanish o‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usini tahliliy, amaliy, ijodiy, kommunikativ, ijtimoiy, o‘z-o‘zini tahlil qilish kabi ko‘nikma, malakalarni rivojlantiradi.

M.H.Usmonboyevaning e’tirofiga ko‘ra, o‘rganilayotgan muammo, masalalarning xarakteri, yo‘nalishi, murakkablik darajasiga

ko‘ra o‘quv keyslari ko‘p yoki kam sonli elementlardan iborat tarkibiy tuzilmaga ega bo‘ladi [9]. Muallifning fikriga ko‘ra, bunda keys-stadining texnologiya yoki metod sifatida qo‘llanilayotgani inobatga olinadi.

Tadqiqotni olib borish davrida tajriba maydonlari bo‘lgan sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirishda “Yurtni qo‘riqlash – mardlar ishi” nomli tadbir jarayonida Mirkarim Osimning “Shiroq” [10,1] va “To‘maris” [10,2]; Xurshid Davronning “Massagetlar malikasi va forslar podshohi” [10,3] kabi asarlar asosida respondent-o‘quvchilarning e’tiboriga quyidagi keyslar tavsiya qilindi:

2. “Amaliy jamoaviy ijodiy loyiha” (AJIL) texnologiyasi. Ushbu texnologiyadan foydalanish orqali sport mashg‘ulotlarida “amaliy jamoaviy ijodiy loyiha shakllari to‘g‘risidagi tushunchani hosil qilish, ijodiy faoliyat malakalarini shaklantirish, jamoaviy ijodiy ishlarni tashkil etish tajribasini rivojlantirish”ga erishiladi [11,1].

Aytib o‘tilganidek, interfaol metodlar o‘z mohiyatiga ko‘ra faoliyatni jamoaviy tashkil etilishini taqozo qiladi. AJIL texnologiyasi jamoaviy faoliyatning ijodiylikka asoslanishini ifodalaydi.

3. “Inform-dayjest” texnologiya. Bunda kichik guruhlar ularning e’tiboriga havola qilingan asarlar yoki ulardan olingan parchalarga tayangan holda tadbir uchun asosiy personaj sifatida tanlangan tarixiy qahramonning faoliyati va harbiy jasoratiga oid besh daqiqali annotatsiya tadbir ishtirokchilariga havola qildi; namoyish shakli (devoriy gazeta, elektron taqdimot, og‘zaki bayon va hokazolar) kichik guruhlar tomonidan mustaqil ravishda tanlandi.

Tadqiqotni olib borishda “inform-dayjest” texnologiyasidan foydalanishga oid namuna “Xiyonat – Spitamen qotili qo‘lidagi qurol” mavzusidagi tadbirda misolida yuqorida keltirildi

4. “Mavzuli blits-so‘rov” texnologiyasi. Lug‘aviy ma’nosiga ko‘ra “blits” tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda “tezkor”, “bir zumda” [11,2]. ma’nosini ifodalaydi. “Blits-so‘rov” texnologiyasi “berilgan savollarga qisqa, aniq va lo‘nda javob qaytarilishini taqozo etadi” [11,3]. .

5. “Breyn-ring” texnologiyasi. Kichik guruhlarga uchunchi shart bo‘yicha topshiriq berishdan avval “Breyn-ring” tushunchasining mazmuni xususida ma’lumot berib o‘tildi. Tushuncha asosidagi “breyn” (ingl. “brain” – aql, idrok, fahm) so‘zi lug‘aviy mazmuniga ko‘ra tafakkur tezligini ifodalashga xizmat qiladi. “Brayn-ring” iborasi esa topshiriqlarni bajarish guruhlar o‘rtasidagi bellashuv xarakteriga egaligini anglatadi [11,4] Ya’ni intellektual ringda raqib jamoa (kichik guruh)lar berilgan topshiriqni birinchi bo‘lib to‘la, to‘g‘ri bajarish, og‘zaki savollarga birinchi bo‘lib to‘g‘ri javob topishga harakat qilishi zarur.

6. “Axborot +” texnologiyasi. Mohiyatiga ko‘ra ushbu shartda kichik guruhlar general-leytenent D.M.Karbishevning harbiy jasoratini ifodalovchi qo‘shimcha ma’lumotlarni taqdim etishi kerak. Tadqiqot jarayonida mazkur shart uchun kichik guruhlarga Mautxauzen konslagerida general-leytenent D.M.Karbishev tomonidan ishlab chiqilgan “Rus jangchilari va komandirlari uchun asirlikdagi xulq-atvor qoidalari” [12] ga oid ma’lumotlarni taqdim etish tanlandi.

Shunday qilib, bugungi kunda ta’limda bo‘lgani kabi ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonining samarali bo‘lishida interfaol texnologilar alohida ahamiyatga egaligi barchaga ayon. “Keys-stadi”, “Amaliy jamoaviy ijodiy loyiha”, “Inform-dayjest”, “Mavzuli blits-so‘rov”, “Breyn-ring”, “Axborot +” kabi interfaol texnologiyalarning didaktik imkoniyati bilan tanishish tarixiy-badiiy asarlar vositasida sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usini samarali rivojlantirishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi. Tadqiqot davrida metodlarning to‘g‘ri tanlanganini tashkil etilgan tadbirlarning natijasi ham tasdiqladi.

Tadqiqot natijalari. Texnologiyalardan foydalanib mashg‘ulotlar o‘tkazilgandan so‘ng, olingan natijalardan sinfdan tashqari sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirish texnologiyasi

samaradorligini baholash mezonining birdan kattaligi bilan va bilish darajasini esa baholash mezonining noldan kattaligi bilan ko‘rish mumkin. Bundan ma’lumki, tajriba guruhidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi nazorat guruhidagi o‘zlashtirishdan yuqori ekan. Shunday qilib, ta’kidlovchi tajriba bosqichida olingan natijalar sinfdan tashqari sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirish malakalariga(12,3 % ga) ega bo‘lganliklarini ko‘rsatdi. Bu holat o‘z navbatida ilmiy-pedagogik tajribani tashkil etishdan ko‘zlangan maqsadga erishilganligining yorqin ifodasi sanaladi.

Xulosa. Sinfdan tashqari sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usiga chuqur munosabatlarini anglash, ta’lim jarayonida ularni rivojlantirishda eng samarali usul pedagogik texnologiyalardan oqilona tanlashga imkon beradi, shaxsga o‘zi va jamiyat uchun zarur bo‘lgan kerakli fazilatlar hamda munosabatlarni rivojlantirishda yordam berishi aniqlandi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5924-sonli Farmoni // https //:lex.uz/docs

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6108-sonli Farmoni // https //:lex.uz/docs

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-sonli Qarori // https://www.lex.uz/acts/

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi “Sport-ta’lim muassasalari faoliyatini 2025-yilgacha rivojlantirish dasturi to‘g‘risida” PQ-5280-son Qarori // https //:lex.uz/docs/

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» PF-60-son Farmoni // https //:lex.uz/docs

6. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-fevraldagi “2019-2023-yillar davrida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 118-sonli Qarori // https://www.lex.uz/acts/

7. Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelajgimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent: “O‘zbekiston” 2017-yil.

8. Метод кейсов (case study) // https://evolkov.net/case/case.study.html.

9. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Ҳ. Инновацион таълим технологиялари ва педагогик компетентлик” модули бўйича ўқув-методик мажмуа /– Т.: ТДПУ, 2016. – 85-б.

10. Интерфаол методлар: моҳияти ва қўлланилиши / Мет.қўлл. Тузув.: Д.Рўзиева, М.Усмонбоева. – Т.: ТДПУ нашриёти, 2013. – 10-17-б.

11. Чудинова В.П. Повышение читательской, медиа и информационной грамотности населения (зарубежный опыт) // Ж. Библиотековедение. – М.: 2013. № 4. – С. 87-92.